

Uch avlod uchrashuvi

✘ Joriy yilning 6 mart kuni “Qishloq xo‘jaligi energiya ta‘minoti” fakulteti xotin-qizlar uyushmasi raisi tomonidan katta hayot tajribasiga ega faxriy ayol professor o‘qituvchilar bilan “Uch avlod uchrashuvi” bulib o‘tdi. Unda 1968 - 1995 yillar oralig‘ida “Elektrotexnikaning nazariy asoslari” kafedrasida ko‘p yillar faoliyat olib borgan mehnat faxriysi dotsent Aliyeva Sanovar Xodjayevna bilan fakultet professor o‘qituvchilari va talaba qizlar o‘rtasida uch avlod uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Avlodlar birligini ta‘min etuvchi mezon ta‘lim-tarbiyaga munosabat va mehr-oqibatdir. Ishtirokchilar ana shu haqiqatni anglab yetishdi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov